



## HUQUQIY FIKSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY- HUQUQIY TABIATI VA MOHIYATI

Choriyev Ulug`bek Rustamovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20678746>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 09-iyun 2026 yil

Ma`qullandi: 11-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 13-iyun 2026 yil

### KEYWORDS

huquqiy fiksiya, huquqiy prezumpsiyalar, yuridik shaxs, huquqiy texnika, huquqiy munosabatlar, qonunchilik tizimi, Fuqarolik kodeksi.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada huquqdagi fiksiya tushunchasining nazariy - huquqiy asoslari va uning hozirgi qonunchilikning shaxs, jamiyat va davlat o`rtasida tutgan o`rni haqida muhokama qilinadi. Huquqdagi fiksiya tushunchasi bilan huquqdagi prezumpsiya tushunchasining o`rtasidagi o`zaro asosiy farqlari va o`xshashliklari chet-el olimlarining asarlari, fikrlari va dunyo tajribasi orqali tahlil qilingan ma`lumotlar orqali maqoladagi fiksiya tushunchasiga misollar keltiriladi. Shuningdek, tadqiqot davomida olib borilgan izlanishlar natijasida O`zbekiston Respublikasining qonunchiligi orqali fiksiyaga amaliy misollar hamda tegishli normalar berilib o`tiladi. Fiksiyaning huquq tizimidagi o`rni va uning qo`llanilish asoslari natijasida jamiyat va davlat o`rtasidagi yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlar tahlil qilinadi.*

Bugungi kunda jamiyatimizda kelib chiqayotgan bir qancha ijtimoiy munosabatlarning qonunchiligimiz tomonidan tartibga solinishi kerakligi dolzarb ahamiyatga ega bo`lib qolmoqda. Huquqdagi fiksiyalar va ularning asosiy xususiyatlari jamiyatimiz a`zolari tomonidan tushunilishi hamda ularning mohiyatini anglash, shuningdek , ularning nazariy-huquqiy tabiatini ochib berish hozirgi kunda muhim ahamiyatga egadir. Huquqdagi fiksiyalar ko`pchilik tomonidan noto`g`ri idrok etilishi ayni vaqtda muammo bo`lib kelmoqda. Fuqarolar tomonidan huquqiy prezumpsiya bilan huquqiy fiksiyalarning chalkashtirib yuborilishi, hamda huquqiy fiksiyalarga yetarlicha amaliy misollar yetarlicha yoritilmagani huquqiy fiksiyalarning notog`ri talqin etilishiga va shu sababli muayyan bir ijtimoiy munosabatlarda qarama-qarshiliklar yuzaga kelishiga sababchi bo`lmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi huquqiy fiksiyaga to`g`ri ta`rif shakllantirish, uning asosiy xususiyatlarini ochib berish va huquqiy fiksiyalarning huquqiy prezumpsiyadan farqlarini ochib berishda iboratdir.

### Metodologiya

Ushbu maqolani yozishda turli xil metodlardan (usullardan) foydalanildi. Birinchisi, tarixiy - huquqiy usuldir, bu usul orqali fiksiyaning tarixiy-huquqiy asoslari, uning kelib

chiqishi va olimlarning asarlaridagi fiksiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Ikkinchisi, qiyosiy-huquqiy metod. Bu metod orqali huquqdagi fiksiya va huquqiy prezumpsiyalar tushunchalari o'rtasidagi farqlar, shuningdek, O'zbekistonning qonunchilik tizimidagi huquq institutlaridagi fiksiyalar o'rganildi.

### Tadqiqot va natijalar

Huquqshunos olim Sh.A.Saydullayevning fikricha, huquqdagi fiksiyalar – joriy qonunchilik bilan tan olingan va umummajburiy xarakter kasb etgan, lekin amalda mavjud bo'lmagan holatlar (masalan, muayyan shaxsning bedarak yo'qolganligi sababli ma'lum muddat o'tgandan keyin uni vafot etgan deb e'lon qilinganligi va keyinchalik mazkur shaxsning tirik ekanligi aniqlangani) fiksiyaga misol bo'la oladi.[1] Xususan, O'zbekiston Respublikasining Oila va Fuqarolik kodekslaridagi fiksiyalar mavjud qonunchilikdagi bo'shliqlar va muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda xizmat qiladi.

Huquqiy fiksiyalarning tarixiy-nazariy asoslariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bunda bizga chet el olimi Henry Mainening "Qadimgi Huquq" (Ancient Law) asarida fiksiya haqida keltirib o'tilgan ma'lumotlar yordam beradi. Huquqshunos olim Henry Mainening o'zining ushbu asarida quyidagicha mulohaza yuritgan: "Huquqni jamiyat bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi vositalar borasida ma'lum qiymatga ega bo'lgan umumiy mulohaza yuritish mumkin. Menimcha, bunday vositalar uchta: Huquqiy fiksiyalar, Adolat (Equity) va Qonunchilik. Ularning tarixiy paydo bo'lish tartibi ham aynan men keltirgan ketma-ketlikda sodir bo'ladi. Ba'zan ularning ikkitasi bir vaqtda amal qilayotganini ko'rishimiz mumkin, shuningdek, shunday huquqiy tizimlar borki, ular ushbu vositalarning biri yoki boshqasining ta'siridan chetda qolgan. Biroq, men ularning paydo bo'lish tartibi o'zgargan yoki teskari bo'lib qolgan birorta holatni bilmayman. Men "fiksiya" so'zini ingliz huquqshunoslari odatda qo'llaydigan ma'noga qaraganda ancha kengroq va Rim "fictiones" (fiksiyalari) ma'nosidan ancha kengroq ma'noda ishlataman. Qadimgi Rim huquqida *fictio* — bu sud jarayoniga oid termin bo'lib, da'vogarning javobgar tomonidan inkor etilishiga yo'l qo'yilmaydigan noto'g'ri tasdig'ini anglatgan; masalan, aslida chet ellik bo'lgan da'vogarning o'zini Rim fuqarosi deb da'vo qilishi bunga misol bo'ladi. Ushbu "fiksiyalar"ning maqsadi, albatta, sud yurisdiksiyasini (vakolatini) ta'minlash bo'lgan. Ammo hozir men "Huquqiy fiksiya" iborasini — huquqiy qoida o'zgarganini yashiradigan yoki yashirishga intiladigan har qanday taxmin (assumption) ma'nosida qo'llayman; bunda qonun matni o'zgarmasdan qoladi, lekin uning qo'llanilishi va oqibati o'zgaradi".[2] "Shuning uchun bu so'zlar (fiksiya) men ingliz va rim huquqidan keltirgan fiksiya misollarini o'z ichiga oladi, biroq ular qamrab oladigan ma'no ancha kengroqdir; chunki men ingliz "Pretsedent huquqi" (Case-law) va Rimning "Responsa Prudentium" (huquqshunoslar javoblari) institutlarini ham fiksiyalarga asoslangan deb bilaman. Bu misollarning har ikkisi ham birozdan so'ng tahlil qilinadi.

Har ikki holatda ham haqiqat shundan iboratki, qonun butunlay o'zgargan; fiksiya esa qonun go'yoki har doim qanday bo'lsa, shundayligicha qolayotganidadir. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki paytlaridanoq nima uchun fiksiyaning barcha shakllari shunchalik yaqin qabul qilinganini tushunish qiyin emas. Ular bir vaqtning o'zida ham jamiyatdagi rivojlanishga bo'lgan ehtiyojni qondiradi, ham qonun o'zgarishiga nisbatan mavjud bo'lgan huquqiy-konservatizmni uyg'otmaydi.

Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida fiksiyalar qonunning qat'iyligini (rigidlikni) yengib o'tish uchun samarali vositadir; hatto ulardan biri — oilaviy rishtalarni

yaratishga imkon beruvchi Farzandlikka olish fiksiyasi (Fiction of Adoption) bo'lmaganida, jamiyat qanday qilib mavjud kamchiliklarni bartaraf etib, sivilizatsiya sari ilk qadamlarini bosgan bo'lishini tasavvur qilish qiyin.

Biroq, shu bilan birga, fiksiyalarning foydasini ko'rib, ularni tizimimizda o'zgarimas qoida sifatida saqlab qolish kerak deb hisoblaydigan nazariyotchilarning fikrlariga qo'shilish noto'g'ri bo'lar edi. Shubhasizki, tan olingan foydali maqsadga erishish uchun "huquqiy fiksiya" dan foydalanish zamonaviy huquq tizimiga munosib emas. Huquqshunis olim Bentham fiksiyalar to'g'risida quyidagicha fikr yuritgan: "Men huquqni tushunishni murakkablashtiradigan yoki uni garmonik tartibga solishga xalaqit beradigan har qanday anomaliyani asosli deb hisoblay olmayman. Zero, boshqa kamchiliklar qatori, huquqiy fiksiyalar tizimli klassifikatsiyalash yo'lidagi eng katta to'siqdir".[3]

Tarixiy fiksiyalarga misol keltirib o'tadigan bo'lsak, Qadimgi Misr huquqi ham meros huquqi sohasida yuridik fiksiyalardan foydalangan. «Meros mulkining boshqaruvchisi yoshi bo'yicha to'ng'ich o'g'il bo'lar edi. Biroq ota-ona bu rolga uni emas, balki yoshi kichikroq o'g'ilni tayinlashi mumkin edi. Bunday holda, kichik o'g'il (yoshi bo'yicha emas, balki unvoni/maqomi bo'yicha) to'ng'ich o'g'il hisoblangan». Er-xotinning farzandi bo'lmagan hollarda quyidagi yuridik fiksiyadan foydalanilgan: «er vafot etgan taqdirda, marhumning mulki uning aka-ukalari va opa-singillariga o'tishi kerak edi, beva ayol esa ularning da'volariga hech qanday qarshilik ko'rsata olmasdi. Bunday vaziyatda er o'z xotinini farzandlikka (qiz qilib) olishi va shu yo'l bilan uni o'zining merosxo'riga aylantirishi mumkin edi».

Bundan tashqari, Qadimgi Hindistonning siyosiy va iqtisodiy trakti — "Artxashastra" iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy munosabatlar haqidagi bilim va ma'lumotlarning muhim manbai bo'lib, unda quyidagi fiksiyalar mavjud edi: "Qiz bolaning o'z otasining uyida tug'ilgan o'g'li, u turmushga chiqqan kishining o'g'li hisoblanadi. Keyinchalik u o'sha qizga uylangan kishining o'g'li bo'ladi". "O'g'li bo'lmagan ota qizini turmushga chiqishga undardi, toki bu nikohdan tug'ilgan o'g'il bola bobosining oilasiga kirsin va uning asrab olingan farzandi bo'lsin"

Shubhasiz, bu sanab o'tilganlar ichida eng yaqqol va bahsli fiksiyadir. Chunki biror buyumni guvohlarsiz sotib olgan, uning uchun ma'lum haq to'lagan inson, so'zning to'g'ri ma'nosidagi o'g'ri emas, balki shunchaki mulohazasiz xaridordir. Shunday qilib, mazkur fiksiya adolatsizlikni keltirib chiqargan, chunki ko'rsatilgan holatlarda jazoni begona, hech aybi yo'q inson tortgan, haqiqiy o'g'rilar esa jazosiz qolavergan.

Binobarin, Qadimgi Bobil huquqiga «tengga-teng» deb nomlanuvchi yana bir yuridik fiksiya ma'lum edi. Aybdorning shaxsan o'ziga nisbatan xuddi shunday harakatni qo'llash imkoni bo'lmagan hollarda quyidagilar qo'llanilgan: "gapga kirmaydigan qulning qulog'ini kesishgan, otasini haqorat qilgan o'g'ilning tilini kesishgan, omadsiz jarrohlik amaliyotini o'tkazgan tabibning esa barmoqlarini kesishgan".

Mo'g'ullar uchun mo'ljallangan mazkur qonunchilik hujjatlari to'plami yoki boshqacha aytganda "Ulojenie", "Ssaadjin-bitshig" manjur qonunchiligini kodifikatsiya qilishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilgan va bir qator yuridik fiksiyalarni o'z ichiga olgan edi. "Agar o'g'rilar o'g'irlangan chorvani o'ldirib, tana qismini qoldirib ketishsa, begona bir kishi esa uni olib ketsa, u hayvon uchun haq to'lashi kerak". Bular qadimgi davlatlarning qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan yuridik fiksiyalar namunalarining faqat bir qismidir.

Bayon etilganlardan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, sanab o'tilgan barcha qadimgi huquqiy tizimlarda yuridik fiksiyalar munosabatlarni tartibga solishni

soddalashtirish uchun foydalanilgan. Ular zaruriy edi. Ularning ba'zilari adolat va huquq tamoyillariga javob bermasdi, gumanizmga zid hisoblanardi, biroq shunga qaramay, yuridik fiksiyalarning mavjudligi huquqning rivojlanish darajasi va o'sha davr hayoti voqeligi bilan oqlangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, qadimgi davlatlar hujjatlarida yuridik fiksiyalarning qonuniy mustahkamlanishi hamda ularning zamonaviy huquqda ham mavjudligi yuridik fiksiyalar yuridik fanda alohida o'rin tutishidan dalolat beradi. Ular sud ishini yuritishni soddalashtiradi, huquqiy bazani kengaytiradi va sudyalarga u yoki bu faktni yuridik fiksiyani tan olish natijasida o'rnatilgan fakt deb hisoblab, muhimroq faktlarga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Davlatlarning huquqiy tizimlarida sodir bo'lgan o'zgarishlarga, yangi qonunchilik hujjatlarining paydo bo'lishiga qaramay, yuridik fiksiyalar ilgorigidek inson va fuqaro huquqlarini himoya qilish kafolati bo'lib qolmoqda. Bu bevosita fiksiyalar qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirishida namoyon bo'ladi, bu esa o'z navbatida sud ishini yuritish jarayonini yaxshilashga, huquqiy tartibga solishning barqarorligi va mustahkamligiga erishishga yordam beradi.[4]Fiksiyalarning soliq huquqi sohasidagi huquqiy tartibga solish uchun ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Ular huquqiy noaniqlikni bartaraf etishga, muayyan bir vaziyatda huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari tayanishi mumkin bo'lgan o'ziga xos huquqiy asosni, huquqiy faktni taqdim etishga imkon beradi. Muayyan vaziyatlarda fiksiyalardan foydalanish xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, fiksiyalar boshqa vositalar huquqiy tartibga solish maqsadlariga samarali erishishga imkon bermagan hollarda qo'llaniladi.[5]Huquqiy fiksiyalarni o'rganar ekan, A.V. Markin ular deganda ijtimoiy huquqiy munosabatlardagi o'ylab topilgan, xayoliy holatni tushunadi, uning yordamida u yoki bu faktning, voqeaning yoki ular haqida ma'lumot bo'lmagan yoki bo'lishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlarning asoslanishi ta'minlanadi. Fuqarolik protsessida fiksiyalar texnik-yuridik termin sifatida qabul qilinadi. Ularning tan olinishi poydevor hisoblanib, yolg'on tasdiq haqiqat deb tan olinishiga qaramay, bunga majburan yo'l qo'yiladi. Ushbu tan olish bir necha omillar bilan shartlanadi:

1.Sud majlisida bartaraf etib bo'lmaydigan noma'lumlik (masalan, harbiy harakatlar natijasida bedarak yo'qolgan insonning tirik yoki o'lik ekanligi sudga oxirigacha noma'lum bo'lib qolishi);

2.Voqea haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi (mulkning egasi bor-yo'qligi noma'lumligi; inson tiriklar safida yo'q, ammo uning haqiqatda o'lganligi haqida ma'lumotlar yo'qligi);"

3. Noaniq hayotiy holatlarga huquqiy shakl berish;

4. Huquqiy tartibga solish formalizmini shubhali yoki noma'lum bo'lgan, yuridik baho talab qiladigan faktlarni to'ldirishga qayta yo'naltirish;

5. Yuridik fiksiyalarning ijtimoiy ahamiyati — bu keng doiradagi shaxslarning huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishni ta'minlaydi, chunki fiksiyalar bo'lmaganida bu himoyaning imkoni bo'lmas edi.

Fiksiyalar yuzaga kelgan bo'shliqni bartaraf etishga va uni huquqiy qilishga, unga yuridik mazmun berishga imkon beradi. Masalan, o'lgan deb e'lon qilingan fuqaroning vafot etgan kuni deb, uning o'lgan deb e'lon qilish haqidagi sud qarorining qonuniy kuchga kirgan kuni hisoblanadi.[6] huquqiy prezumpsiyalar va fiksiyalarni yuridik texnikaning maxsus usullari sifatida tavsiflash lozim. Ularga dinamik xarakter xosdir, chunki ularni jamiyat va davlat

hayotining turli sohalarini huquqiy tartibga solinishi jarayonida qo'llash dolzarb va faol hisoblanadi. Bu esa, ularni amaliy qo'llash orqali ko'rsatilgan sohalarini hamda ularda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni qonunchilik normalarida qonuniy mustahkamlash yordamida yanada batafsil tartibga solish va reglamentatsiyalash imkonini beradi.

Ko'rib chiqilayotgan tushunchalar mazmunini aniqlash huquq doktrinasida ularni tushinishda yagona yondashuv yo'qligi sababli ilmiy munozaralar mavjudligi bilan bog'liq. Huquqiy prezumpsiyalar va huquqiy fiksiyalarni amaliy qo'llash, shuningdek, ularning universal ta'rifida ifodalanadigan yagona tushunchaning yo'qligi tufayli qiyinlashmoqda. Huquqiy prezumpsiyalar va fiksiyalar ta'riflarining mazmuni borasidagi qarashlar xilma-xilligining sababi, ularning mustaqil huquqiy hodisa sifatidagi murakkab xarakteri va mohiyatining ko'p qirraliligi bilan izohlanadi.[7]

Ko'rib chiqilgan yondashuvlardan tashqari, huquqiy fiksiyaning mohiyati bo'yicha boshqa fikrlar ham mavjud. Masalan, I.A. Isayevning hisoblashicha, yuridik fiksiya qonunchilikda qonun chiqaruvchi bo'shliqlarni bevosita bartaraf etishga tayyor bo'lmagan yoki xohlamagan vaziyatlarda bo'shliqlarni samarali to'ldirish usullaridan biri bo'lib xizmat qiladi, biroq qonunchilik hujjatlari sonining ko'payishi va yuridik texnikaning rivojlanishi tufayli bo'shliqlarni to'ldirishning ushbu usuli tarixga aylanadi.

Ushbu pozitsiya yetarlicha asosli hisoblanmaydi, chunki fiksiya huquqdagi bo'shliqlarni to'ldirish usuli emas, u yuridik texnika vositasi bo'lib, huquq ijodkorligi jarayonida huquqiy normalarda mustahkamlanadi va aynan bo'shliqlarni bartaraf etadi. Fiksiyalar huquqiy tartibga solishni ratsionalizatsiya qilish va optimallashtirishga xizmat qiladi, shuning uchun qonunchilik hujjatlari sonining ortishi va yuridik texnika rivojlanishi, aksincha, undan huquqning barcha sohalarida yanada tez-tez foydalanishga yordam beradi.

Ba'zi olimlar huquqiy fiksiyani alohida yuridik fakt deb atashadi (masalan, O.A. Kursova, V.V. Lazarev va S.V. Lipen. Biroq u bunday emas, chunki u harakat yoki voqealarga kirmaydi, balki shunchaki huquqiy munosabatlar dinamikasi fakt mavjudligini talab qilgan, real voqelikda esa bo'shliq mavjud bo'lgan vaziyatda yetishmayotgan yuridik faktning o'rnini bosadi.

Shunday qilib, huquqiy fiksiyani yuridik texnikaning eng to'g'ri vositasi deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Fiksiya yuridik texnika vositasi sifatida quyidagi asosiy belgilarga ega:

1.Oldindan ma'lum bo'lgan yolg'onlik;

2.Raddiya berib bo'lmaslik (inkor etib bo'lmaslik);

3.Normativlik;

4.Imperativlik (ba'zida dispozitiv fiksiyalar ham uchraydi — masalan, Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksi normalarida mustahkamlangan fiksiyalar (135-modda 1-band va 136-modda 1-band));

5.Voqelikning qasddan deformatsiyasi (turli va hatto qarama-qarshi tushuncha va holatlarni sun'iy ravishda o'xshatish va tenglashtirish; mavjud bo'lmagan holatlarni real deb tan olish va mavjudlarini inkor etish; mavjud holat va vaziyatlarni ular aslida paydo bo'lishidan oldinroq paydo bo'lgan deb tan olish yoki keyinroq paydo bo'lgan deb hisoblash)

Huquqiy fiksiya turli manfaatlarni himoya qilish funksiyasini bajaradi, ishni mohiyatan tez va to'g'ri hal qilishga yordam beradi hamda huquqiy tartibga solishning samaradorligi va sifatini oshiradi, shuning uchun u istisnosiz ijobiy rol o'ynaydi.[8]

Demak, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, huquqiy fiksiya deganda quyidagicha ta'rif berilishi to'g'ri degan fikrdamiz: "Huquqiy fiksiya - hayotda aslida mavjud bo'lmagan holatni

davlat tomonidan haqiqat deb tan olinishidir". Mazkur huquqdagi fiksiyalarga bir necha misollarni ketirib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'lar edi. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasida yuridik shaxs tushunchasiga ta'rif berilib otilgan. Unda yuridik shaxs "O'z mulkida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi".[9] Aslida esa yuridik shaxs bu alohida bir shaxs yoki odam emas, balki bir nechta bir guruh odamlar yig'indisidir, lekin qonunchilikda u yuridik shaxs deb ta'riflangan. Fiksiyaning asosiy maqsadi ham hayotdagi murakkab jarayonlarni soddalashtirish va huquqiy munosabatlarni qulayroq boshqarishdir. Masalan, sizga biror-bir tashkilot tomonidan zarar yetkaziladigan bo'lsa, unda siz o'sha tashkilotdagi 600-700 kishini emas, balki bitta shaxsni ya'ni tashkilotni sudga berasiz. Bu esa o'z navbatida huquqiy ziddiyatlarni va noqulayliklarni oldini oladi. Ikkinchidan, Oila huquqida fiksiyaga misol bo'lishi mumkin bo'la oladigan bu farzandlikka olish hisoblanadi. Oila kodeksining 153-moddasida farzandlikka olish siri haqida batafsil ma'lumot berilgan, shuningdek, farzandlikka olingan bolaning tug'ilganlik guvohnomasida farzandlikka oluvchilarni ota-ona deb yoziladi, garchi ular bolaning biologik nuqtayi nazaridan haqiqiy ota-onasi bo'lmasada, qonun ularni shunday deb e'tirof etadi. Biologik jihatdan bu noto'g'ri, lekin qonun bolaning manfaatini ko'zlab, asrab oluvchilarni qonuniy ota-ona deb fiksatsiya qiladi.

Huquqiy prezumpsiya hamda huquqdagi fiksiyalar tushunchalarining va ularning amaldagi qonunchilikka bo'lgan ta'sirining o'rtasida farqlar mavjud. Professor olim Sh.A.Saydullayevning yozishicha "Huquqiy prezumpsiya – bu nazarda tutilayotgan va mavjud bo'lgan faktlar orasidagi aloqalarga asoslangan holda muayyan faktlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi faraz. Prezumpsiya – aksi tasdiqlanmaguncha biror dalilni yuridiki jihatdan to'g'ri deb hisoblash. Masalan aybsizlik prezumpsiyasi – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi". "Fiksiya prezumpsiyadan farqli o'laroq, inkor etilishga yo'l qo'ymaydi. Agar prezumpsiyani inkor etish imkoniyati olib tashlansa, u fiksiyaga aylanadi".[10] Prezumpsiya va fiksiya o'rtasidagi asosiy farq – bu inkor etish va inkor etib bo'lmaslikdir. Masalan, prezumpsiyani agar dalil va isbot mavjud bo'lsa bekor qilsa ya'ni inkor etsa bo'ladi, lekin fiksiyani inkor etib bo'lmaydi. Masalan, yuridik shaxsni hech kim shaxs emasligini isbotlay olmaydi, chunki qonun buni qat'iy qonun normalarida belgilab qo'ygan. Sh.A.Saydullayevning yozishicha "Huquqdagi fiksiyalar – joriy qonunchilik bilan tan olingan va umummajburiy xarakter kasb etgan, lekin amalda mavjud bo'lmagan holatlar (masalan, muayyan shaxsning bedarak yo'qolganligi sababli ma'lum muddat o'tgandan keyin uni vafot etgan deb e'lon qilinganligi va keyinchalik mazkur shaxsning tirik ekanligi aniqlangani)". Bunda, bu fiksiyaning qo'llanilishi ko'plab huquqiy muammolarni hal qilishi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Mulkiy huquqlar yoki bo'lmasam oilaviy munosabatlarda bu fiksiyaning qo'llanilishi ijtimoiy zaruriyatga qarab taqaladi.

#### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, huquqiy fiksiyalarning nazariy-huquqiy tabiatini hamda ularning asosiy xususiyatlarini to'g'ri anglash, shuningdek, ularning huquqiy prezumpsiyadan farqini

tushunish nafaqat qonunchilik tizimi uchun barqarorlikni olib keladi, balki jamiyat uchun ham manfaatli hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar davomida, huquqiy fiksiyalarning nazariy-huquqiy tabiati tarixiy va qiyosiy jihatdan ochib berildi. Huquqiy fiksiya va huquqiy prezumpsiya tushunchalari o'rtasidagi farqlar ham tahlil qilindi. Fiksiyalarga amaliy misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasi hamda Oila kodeksining 153-moddasi keltirildi. Demak, yuqoridagilarga ko'ra huquqiy fiksiya ta'rifini quyidagicha degan xulosaga keldik: "Huquqiy fiksiya - hayotda aslida mavjud bo'lmagan holatni davlat tomonidan haqiqat deb tan olinishidir". Huquqiy fiksiya tushunchasiga ta'rifni to'g'ri shakllantirish ijtimoiy munosabatlarni soddalashtirishda va inson huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, huquqiy fiksiyalarning asosiy xususiyatlari sifatida biz yuqorida keltirib o'tganimizdek, imperativlik ya'ni majburiylik, inkor etib bo'lmazlik-huquqiy fiksiyaning eng asosiy xususiyatlaridan biridir hamda normativlik ya'ni uni qonunchilik hujjatlarida mustahkamlab qo'yilishi shu bilan birgalikda davlat tomonidan kafolatlanishi deb topdik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davlat va huquq nazariyasi: darslik/ Sh.A.Saydullayev – T.: TDYU nashriyoti, 2024.
2. Maine, H. S. (1861). Ancient law: Its connection with the early history of society, and its relation to modern ideas. John Murray.
3. Bentham, J. (1932). The theory of fictions (C. K. Ogden, Ed.). Routledge. (Original work published 1843).
4. Fuller, L. L. (1967). Legal fictions. Stanford University Press.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. (1996). Adolat. <https://lex.uz/docs/111189>
6. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. (1998). Adolat. <https://lex.uz/docs/104720>
7. Davlat va huquq nazariyasi: darslik/ Sh.A.Saydullayev – T.: TDYU nashriyoti, 2024.
8. Зенкина, С. М. Юридические фикции в законодательстве древних государств / С. М. Зенкина // Вестник Башкирского университета. — 2011. — Т. 16, № 1. — С. 272–275. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuridicheskie-fiktsii-v-zakonodatelstve-drevnih-gosudarstv>
9. Симашков, Д. Ю. Презумпции и фикции в конструкции норм о контролируемых иностранных компаниях / Д. Ю. Симашков // Правовая политика и правовая жизнь. — 2019. — № 1. — С. 88–93. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prezumpcii-i-fiktsii-v-konstruktsii-norm-o-kontroliruemyh-inostrannyh-kompaniyh>
10. Ковалев, И. Д. Роль доказательственных презумпций и правовых фикций при распределении бремени доказывания в гражданском процессе / И. Д. Ковалев // Вопросы российской юстиции. — 2021. — № 11. — С. 552–560. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-dokazatelstvennyh-prezumpsiy-i-pravovyh-fiktsiy-pri-raspredelenii-bremeni-dokazyvaniya-v-grazhdanskom-protse>
11. Грозина, Е. В. Правовые презумпции и правовые фикции: соотношение понятий / Е. В. Грозина, С. Ю. Грозин // Закон и право. — 2024. — № 3. — С. 23–26. — DOI: 10.24412/2073-3313-2024-3-23-26. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-prezumpcii-i-pravovye-fiktsii-sootnoshenie-ponyatiy>

12. Зацепина, О. Е. К вопросу о сущности правовой фикции / О. Е. Зацепина // Пролог: журнал о праве. — 2017. — № 2. — С. 5-9. — DOI: 10.21639/2313-6715.2017.2.2. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-suschnosti-pravovoy-fiktsii>



INNOVATIVE  
ACADEMY